

# Journal of Natural Science

*No1 (6)  
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А.- СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц</li><li>10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чорақда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**JIZZAX VILOYATI SHAROITIDA MOYLI EKINLARDAN MAXSAR  
(*CARTHAMNUS*) O’SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

*Azimova D.E., Sharipova M.H., Nurmamatova F.M.*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

e-mail: dilya\_7662323@mail.ru

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda respublikamizda moyli o’simliklarga bo’lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Jizzax viloyati sharoitida ham moyli o’simliklarni yetishtirish va respublika bo’ylab ommalashtirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu maqolada 2021-yilda Sharof Rashidov tumani sharoitida maxsar o’simligini yetishtirishga doir olib borilgan ilmiy tajribalarimiz natijalari haqida ma’lumot keltirilgan.

**Annotation:** Currently, the demand for oilseeds in our country is growing day by day. In the conditions of Jizzakh region, work is underway to cultivate oilseeds and popularize them throughout the country. This article provides information on the results of our scientific experiments on the cultivation of safflower in 2021 in Sharof Rashidov district.

**Аннотация:** В настоящее время спрос на масличные культуры в нашей стране растет день ото дня. В условиях Джизакской области ведутся работы по выращиванию ю масличных культур и их популяризации по всей республике. В данной статье представлена информация о результатах наших научных опытов по выращиванию сафлора в 2021 году в Шароф Рашидовском районе.

**Kalit so’zlar:** Milyutinskiy-114, moyli o’simlik, mineral o’g’itlar sarfi, agrotexnikasi, ekish muddati, qurg’oqchilikka chidamliligi.

Mamlakatimizda aholining qishloq xo’jaligi mahsulotlari, jumladan ekologik toza o’simlik moyiga bo’lgan ehtiyojini ta’minlash maqsadida moyli ekinlarni yetishtirish bo’yicha izchil choralar ko’rilmoqda. Shu asnosda, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ham 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi farmonining 3,3 bandida “Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, sug’oriladigan, jumladan sho’rlangan yerlardan va suvlardan samarali foydalanish, mahalliy tuproq, iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan, sho’rga chidamli qishloq xo’jalik ekinlarining yangi navlarini yaratish, tanlash, resurs tejankor zamonaviy agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish” ga alohida e’tibor qaratilgan bo’lib, bu vazifalar ijrosini amalga oshirishda moyli ekinlardan hisoblangan maxsar (*Carthamnus*) o’simligini yetishtirish va uning maydonlarini kengaytirish ishlarini olib borish ham ko’zlangan maqsadga erishishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Respublikamizda ham maxsar o'simligiga katta e'tibor berilib, o'simlikni yetishtirishga doir ko'plab tajribalar olib borilmoqda. Misol tariqasida maxsar o'simligining Milyutinskiy-114 navi tanlab olindi va Jizzax viloyati Sh. Rashidov tumani sharoitida sinab ko'rildi.

Maxsar murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga, *Carthamnus L.* turkumiga mansub bo'lib, xalq tilida ushbu o'simlik saflor deb ham ataladi. Maxsar (saflor) ekini Markaziy Osiyoning qurg'oqchilik, ayniqsa lalmi yerlar sharoiti uchun katta ahamiyatli va istiqbolli ekin bo'lib hisoblanadi. Ushbu o'simlikni yetishtirishga oid tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'simlikni yetishtirish fermerlar uchun yuqori daromad manbai bo'lishidan tashqari, chorvachilik, parrandachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida ham keng miqyosda foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. Maxsar ekinining yana bir ijobiy tomoni ekishdan yig'ib olgungacha hamma agrotexnik jarayonlarini mexanizatsiya usulida ijro etish va hosilni kombayn bilan yig'ib olish mumkin.

Maxsar qurg'oqchilikka va issiqqa chidamli o'simlik hisoblanadi. Maxsar asosan kuzgi don-dukakli ekinlarda bo'shagan yerlarga ekiladi. Maxsar o'simligini 2021-yilgi tajribamiz uchun maxsar ekiladigan maydonlarimiz chimqirqarli plug yordamida 22-24 sm chuqurlikda haydab olindi. So'ngra yerlar tekislanib, begona o'tlardan tozalandi va kultivatsiya qilindi. Uning urug'ini ekish erta bahorda, ya'ni mart oyining boshlarida amalga oshirilib, tuproqqa 4-6 sm chuqurlikda qadab chiqildi. Maxsar ham qator oralari yumshatiladigan ekin turlari kabi, qator oralari 50-60 sm kenglikda qilinib, har bir gektar maydon uchun o'rtacha 7-8kg maxsar urug'i ekildi. Biz bilamizki bahor oylarida har qanday tuproqda qatqaloq hosil bo'ladi va bu esa maxsar maysalarining unib chiqishini hamda ularning rivojlanishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun qatqaloqni ekishdan 4-6 kun keyin yengil yumshatgichlar yordamida yumshatiladi. Maysalari yer yuziga unib chiqqandan so'ng uni parvarishlashda erta o'sib chiqqan begona o'tlardan tozalandi va qatorlarni ko'ndalangiga boronalash ishlari olib borildi. Egatlarning qator orasi 60 sm, ko'chatlar oralig'i 15-20 sm dan qilib, har bir uyaga 1-2 tadan o'simlik qoldirilib yagana qilindi. Shu asnosda qator oralari 3-4 marta ishlandi.

O'simlikning mo'l hosil berishi va tez o'sib rivojlanishi uchun uni o'g'itlar bilan oziqlantirib turildi. O'simlikni birinchi oziqlantirish maysalar unib chiqqandan keyin gektar hisobiga 20 kg dan azot va fosfor o'g'iti berishdan boshlandi. Moyli maxsar azotli va fosforli o'g'itlarga talabchan o'simlik bo'lganligi uchun ikkinchi oziqlantirishni shonalash fazasida gektar hisobiga 30 kg azot va 20 kg dan kaliy o'g'iti berildi. O'g'itlar 8-10 sm chuqurlikda solinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Oziqlantirish har bir sug'orish oldidan amalga oshirildi. O'simligimiz suvga unchalik ham talabchan emas. Vegetatsiyasi davomida 3-4 marta sug'orilsa, uning o'sishi va

rivojlanishi uchun yetarli hisoblanadi. Chunki uning ildizlari baquvvat bo'lgani bois tuproqning 2-3 m pastidagi namni o'zlashtirib, o'simlik rivojlanishi uchun sharoit yaratadi va namni juda tejab sarflaydi. Maxsar gullash va pishish fazasida o'g'itlarni ko'proq talab qiladi va oxirgi oziqlantirish gektariga 30 kg azot va 20 kg kaliy o'g'iti berish bilan yakunlandi. Maxsar urug'lari pishib yetilgandan so'ng, bir fazali usulda, ya'ni to'la pishish fazasida yig'ib olindi. Yig'ib olish iyun oyining oxirida kombaynlar yordamida amalga oshirildi.



### **1-rasm. Maxsar o'simligining Milyutinskiy-114 navi.**

Maxsar tuproqqa talabchan emas. U lalmikorliklarda, sug'oriladigan mintaqadagi bo'z, o'tloq, o'tloq-bo'z tuproqlarda o'sadi. Sho'rga chidamliligi tufayli sho'r tuproqlarda ham o'sa oladi va yuqori hosil beradi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdan chiqib ketgan yer maydonlarini yana mahsulot yetishtirish uchun foydalanishga topshirilishiga imkon yaratadi. Shuning uchun biz maxsar o'simligini yetishtirish agrotexnologiyasini yanada rivojlantirish va uning plantatsiyalarini tashkil etishni oldimizga maqsad qildik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947 sonli farmoni.
2. Abdukarimov D.T. “Dala ekinlari seleksiyasi va urugchiligi”. Darslik. Samarqand-2012.
3. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. “O'simlikshunoslik”. Darslik. Toshkent-2018.
4. Lukov M.K. “Moyli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi”. Uslubiy qo'llanma. Samarqand-2011.
5. Niyozov S.A. “Moyli ekinlarga zarar yetkazuvchi asosiy zararkunandalarning biologiyasi, ekologiyasi va ularga qarshi ekologik toza kurash choralari”. Bitiruv malakaviy ish. Samarqand-2016.